

**HARAKATLI O'YINLARNING MAK TABGACHA YOSHDAGI
BOLALAR JISMONIY RIVOJLANISHIGA TASIRI**

Salaydinova Dilrabo Djuraboy qizi

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
maktabgacha talim fakulteti 2 bosqich talabasi*



Annotatsiya: Maqolada harakatli o'yinlarning maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy rivojlanishiga tasiri va maktabgacha talim tizimi rivojlanishi haqida malumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha talim, jismoniy rivojlanish, konsepsiya, bola, ko'nikma, malaka.

KIRISH

Mamlakatimizda so'ngi yillarda talim sohasida katta islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldag'i «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF4947-son Farmoni, Vazirlar Maxkamasining 2020-yil 22 dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya'ning Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 802-sonli qarori va mavzuga bevosita bog'liq bo'lgan BMTning bolalar jamg'armasi YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi texnik ko'magi yordamida yaratilgan maktabgacha ta'lim muassasalarining "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi yuqoridagi so'zlar namunasidir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga talim tarbiya berish va "Ilk qadam" dasturi doirasidagi ishlar ijrosi bo'yicha ko'plab olimlar sohadagi boshqa masalalarga etibor qaratgan holda fundamental tadqiqotlarni olib borganlar. Jumladan xorij tadqiqotchilari A.A. Markov, A.A. Lyapunov, V. Dobulov, va boshqalar tomonidan ham ushbu tizimning dozlarb muammolari o'rganilgan. Avvalo bir jihatga alohida to'xtalish lizmki, bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish «Ilk qadam» dalat o'quv dasturi asosida amalga oshiriladi³. Davlat talablari asosida tuzilgan «Ilk qadam» dalat o'quv dasturiga asosan maktabgacha yoshdagi bolalarning ota-onalari, tarbiyachilari hamda o'zлari uchun turli sohalar bo'yicha dasturlar, qo'llanmalar, tavsiyalar, qiziqarli kitoblar, aqlan va jismonan rivojlantirishga yordam beradigan turlituman o'yinchoqlar va ta'lim tarbiya qurollari yaratiladi. Yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish Maktabgacha ta'lim tizimining boshlang'ich bo'limi bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Maktabgacha ta’lim tashkilotida amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya ishini davr talabi darajasida olib borish maqsadida «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi tuzilgan. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’limi vazirligi bu dasto‘rni respublikamizning o‘ziga xos tomonlarini: iqlimi, jugrofiy, iqtisodiy, madaniy, milliy sharoitlarini hisobga olib, uni qayta ishlab chiqdi. Dastur tug`ilgandan to yetti yoshgacha bo‘lgan bolalar egallashi lozim bo‘lgan bilim va malakalar hajmini o‘z ichiga oladi. U maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning psixologik-fiziologik va o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda ularni har tomonlama kamol toptirishni nazarda tutadi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar, asosan, maktab ta’limiga maktabgacha ta’lim tashkilotlarida va oilada tayyorlanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni rivojlantirish va maktab ta’limiga tayyorlash 3 bosqichda amalga oshiriladi.

1. Bolalarni nutqini rivojlantirish.
2. Jismonan rivojlantirish.
3. Ma’nan rivojlantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari sog‘lom va yetuk, maktabga, o‘qishga tayyorlangan tarzda shakllantirib borishdan iboratdir. Ilmiy jihatdan asoslangan aniq pedagogik rejaning mavjudligi pedagog ishini yengillashtirib, uning ijodiy imkoniyatlarini oshiradi. Ta’limtarbiya ishini rejalashtirish pedagog, bolalar jamoasi va ota-onalarning o‘zaro hamkorligiga, ular tomonidan birgalikdagi faoliyat maqsad va vazifalarini tahlil etishga asoslanadi. O‘zbekiston Respublikasining maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan Davlat talablari, bolalarni qisqa muddatli guruhlarda maktabga tayyorlash «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi pedagoglar uchun yangi imkoniyatlarni vujudga keltiradi, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayonini tashkil etishda qo‘llanayotgan eski shakl va uslublarni qayta ko‘rib chiqishga undaydi, pedagogik tashabbus, tajriba va ijodga keng yo‘l ochadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning asosiy maqsad va vazifalari bolalarni jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantirish, ularning ruhiyat, shaxsiy qobiliyatları, intilish va ehtiyojlarini qondirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, mustaqillik goyalariga sodiq holda voyaga yetib borishini ta’minalash, ularni maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yilgan davlat talablariga muvofiq maktab ta’limiga tayyorlashdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish jarayoni oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi asosida amalga oshiriladi. Yuqoridaq tahlillar va dastur tarkibini o‘rganish natijasida ushbu jihatlarni aniqladik: bolalarni savodxonlikka o‘rgatishda davlat talablarining o‘rni alohida ahamiyatga ega.

XULOSA

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, mulkchilik shaklidan qat’iy nazar maktabgacha ta’lim tizimi hamda oilalarda bolani to‘laqonli tarbiyalash, ta’lim berish va rivojlantirish, uni maktabga samarali tayyorlashda qo‘llanishi majburiy bo‘lgan davlat hujjati bo‘lib hisoblanadi. Davlat talablari 0-7 yoshli bolaning qay darajada rivojlanganligi va egallagan yutuqlarini baholab boruvchi talablar bo‘lib, ular bilim, malaka va ko‘nikmalar rivojlanishining ko‘rsatkichlarini belgilaydi:

1. Jismoniy rivojlanish va sog`lom turmush tarzining shakllanishi;
2. Ijtimoiy - hissiy rivojlanish.
3. Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari.
4. Bilish jarayonining rivojlanishi.
5. Ijodiy rivojlanish.

Mazkur 5 ta yo‘nalish 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarning o‘z-o‘ziga xizmat ko‘nikmalarining shakllanishi, nutq, o‘qish va savodga tayyorlash darajasini, atrof-olam haqidagi tushunchalarni va qo‘yilgan talablarni egallashi uchun asosiy omil hisoblanadi. U maktabgacha ta’lim tizimining mohiyatini belgilaydi va maktabgacha ta’lim tashkilotlarini mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, barcha bolalarning tengligi va bolalik qadriyatini saqlagan holda har bir bolaning individual (alohida) rivojlanishini ta’minlashga yo‘naltiradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldaggi 4-sonli hayat yig’ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.
2. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi «2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ 2707- sonli qarori.